

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.K.Raximova

Badiiy matn talqini va badiiy matn tahlilining tarixiy taraqqiyoti 4

M.Sh.Abdurahimova

Sukut psixofiziologiyasi 12

TILSHUNOSLIK

M.Y.Mamajonov, D.J.Omoniddinova

Morfo-pragmatik va pragmasintaktik talqin 15

D.I.Mirzayeva, N.U.Nigmatova

O'zbek va ingliz tilshunosligida antroponimlarning masalasi 26

N.Abduraxmonova, A.Iskandarova

Parallel korpusda lingvomadaniy birliklarni lingvistik teglash masalasi 29

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlari 33

Z.B.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi ayrim otlarda arabiy ko'plikning ifodalanishi 37

D.R.Ismoilova

The linguopoetics of John Steinbeck's works 42

I.A.Soatov

"Ta'lim-tarbiya" tushunchasining etimologiyasi va lingvistik ifodasi 46

Д.И.Мирзаева, З.А.Абдуллаева

Анализ речевой агрессии через дискурсивный, прагматический и корпусный подходы 52

Ш.У.Жалолов

Лексико-семантические особенности овощных и бахчевых культур 56

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek tillarida nutqiy etiketning lingvopragmatik tahlili 61

U.M.Askarova

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 65

I.Sh.Kurbanova

Temir yo'l terminologiyasini o'rganish usullari va tadqiqot metodologiyasi 70

R.A.Xamrakulova

Margaret Tetcher va Tereza Mey nutqlarining lingvistik tahlili 74

Sh.S.Shadiyeva

Lingvistik nazariyani til o'qitishga integratsiyalash hamda pedagogik amaliyotga filologik yondashish 78

Д.О.Турдалиев

Праздник Масленицы как отражение язычества и христианских традиций в славянской культуре 84

L.T.Toshxonov

Inkorning psixologik kategoriya sifatida milliy romanchilik na'munalarida ifodalanishi 88

Ш.Н.Г.Мамедова

Новый стиль изображения в фольклорных произведениях Гашама Исабаили 92

A.M.Temirova

Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida qo'llanilgan oksimoronlarning struktur-semantik tahlili 98

F.H.Jamilli

The sociolinguistic nature of the representation of female dominance 102



UO'K: 81'42:81'27

NEMIS VA O'ZBEK OILALARIDAGI NUTQIY ETIKETNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**ОСОБЕННОСТИ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА В НЕМЕЦКИХ И УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ****PECULIARITIES OF SPEECH ETIQUETTE IN GERMAN AND UZBEK FAMILIES****Kakharov Qobil Shuhrat o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqola nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida nemis oilalarida shaxsiy mustaqillik, rostgo'ylik va vaqtni qadrlashga asoslangan muloqot uslublari, o'zbek oilalarida esa hurmat, birdamlik va ijtimoiy qadriyatlarga asoslangan nutqiy etiket tahlil qilindi. Lingvistik va madaniy xususiyatlar Hofstedening madaniy o'lchovlar nazariyasi asosida tahlil qilindi. Natijalar madaniyatlararo muloqotni yaxshiroq tushunishga hissa qo'shadi.

Аннотация

В данной статье изучаются особенности речевого этикета в немецких и узбекских семьях. В ходе исследования было выявлено, что в немецких семьях преобладают принципы личной независимости, прямоты и ценности времени, тогда как в узбекских семьях ключевую роль играют уважение, сплоченность и социальные ценности. Лингвистические и культурные особенности были проанализированы на основе теории культурных измерений Хофстеде. Результаты исследования способствуют лучшему пониманию межкультурной коммуникации.

Abstract

This article explores the unique features of speech etiquette in German and Uzbek families. The study reveals that German families emphasize personal independence, straightforwardness, and time appreciation, while Uzbek families prioritize respect, unity, and social values. Linguistic and cultural characteristics were analyzed based on Hofstede's cultural dimensions theory. The findings contribute to a deeper understanding of intercultural communication.

Kalit so'zlar: nutqiy etiket, nemis oilalari, o'zbek oilalari, lingvistik xususiyatlar, madaniyatlararo muloqot.

Ключевые слова: речевой этикет, немецкие семьи, узбекские семьи, лингвистические особенности, межкультурная коммуникация.

Key words: speech etiquette, German families, Uzbek families, linguistic features, intercultural communication.

KIRISH

Nutqiy etiket jamiyat madaniyati va qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim omil bo'lib, u turli xalqlarning muloqot uslublari namoyon bo'ladi. Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning xususiyatlarini o'rganish orqali ularning jamiyatdagi o'rni, oilaviy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan yondashuvlari haqida ma'lumot olish mumkin.

Nemis oilalarida ochiqlik, rostgo'ylik va shaxsiy makonga hurmat asosiy o'rinda turadi. Ular muloqotda to'g'ridan-to'g'ri ifodalarni ishlatib, har bir oila a'zosining fikrini tinglash va qabul qilishga alohida e'tibor qaratadilar. Misol uchun, farzandning ota-onaga o'z fikrini ochiq aytishi odatiy hol hisoblanadi:

„Vater, ich verstehe dich, aber ich glaube, dass du in deinem Urteil irrst.“ (Otajon, men sizni tushunaman, lekin siz mulohazangizda yanglishyapsiz deb o'ylayman.) [6;112]

O'zbek oilalarida esa nutqiy etiket ko'proq kollektivizm va kattalarga hurmatga asoslanadi. Oila a'zolari o'zaro mehribonlik va birdamlikni namoyish etadi. Farzandlar kattalarga nisbatan muloyim va hurmatli ifodalarni qo'llaydilar. Masalan, „Bu fikrni yana bir bor o'ylab ko'r, ehtimol bizning gapimiz ham foydali bo'lar.“

Bu misollar ikki madaniyatning nutqiy etiketidagi farqlarni aks ettiradi. Nemis oilalarida shaxsiylikka urg'u berilsa, o'zbek oilalarida jamoaviy qadriyatlar va hurmat ustuvor ahamiyatga

ega. Ushbu tadqiqot nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning madaniy va lingvistik jihatlarini o'rganib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nutqiy etiketning madaniy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy asar va badiiy manbalar mavjud. Ushbu tadqiqotda nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketni chuqur tahlil qilish uchun quyidagi adabiyotlardan foydalanildi.

Nemis oilalaridagi muloqot madaniyatini tushunishda klassik nemis adabiyoti muhim ahamiyatga ega. J.W.Goethening "Die Leiden des jungen Werther" (Yosh Verterning iztiroblari) [6;112] asari nemis madaniyatida shaxsiy his-tuyg'ularni ifodalash va ularning jamiyatdagi ta'sirini o'rganish imkonini beradi. Ushbu asar orqali nemislar nutqiy etiketida ochiqlik va samimiyat qadriyatlari namoyon bo'ladi. Goethening boshqa bir asari, "Wilhelm Meisters Lehrjahre" (Vilgelm Meisterning o'quv yillari) [7;726], insonning shaxsiy rivojlanishi va muloqotda tanqidiy yondashuvning ahamiyatini ochib beradi.

F.Schillerning "Kabale und Liebe" (Makr va muhabbat) [3;141] dramasi esa nemis oilalarida shaxsiy va ijtimoiy vazifalar o'rtasidagi ziddiyatlarni yoritadi. Bu asar orqali nemis nutqiy etiketining murakkab ijtimoiy muhitda qanday namoyon bo'lishini tushunish mumkin. Shuningdek, T.Mannning "Buddenbrooks" [11;768] asari oilaviy qadriyatlar va iqtisodiy o'zgarishlarning nutqiy muloqotga ta'sirini ko'rsatadi.

Nemis zamonaviy adabiyotida E.Kestnerning "Emil und die Detektive" [2;170] hamda "Das fliegende Klassenzimmer" (Uchuvchi sinf) [1;176] asarlari oilaviy muloqotda bolalar va ota-onalar o'rtasidagi aloqalarni aks ettiradi. Ushbu asarlarda bolalarning fikrlash uslubi, ochiqligi va ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi nemis madaniyatiga xos nutqiy etiket sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek oilalaridagi nutqiy etiketni tushunishda o'zbek adabiyoti alohida ahamiyat kasb etadi. S.Ahmadning "Ufq" [10;912] romani o'zbek oilalarida kattalarga hurmat, oila birligi va an'anaviy qadriyatlarning nutqiy muloqotda qanday ifodalanishini ochib beradi. O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" [9;624] asarida esa oiladagi mehr, tarbiya va muloqotdagi samimiyat yoritilgan.

T.Qudratovning "Nutq madaniyati asoslari" [12;162], S.Mo'minovning "Muloqot mezon" [8;96] ilmiy asari nutqiy etiketning pragmatik va lingvistik jihatlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarda o'zbek tilida hurmat ifodalari va ular orqali muloqotda uyg'unlikni ta'minlash masalalari yoritilgan.

Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida nemis va o'zbek oilalarining lingvistik qadriyatlari va muloqot uslublari o'rtasidagi farqlar ochib berildi. Nemis oilalarida shaxsiy mustaqillik va rostgo'ylik ustuvor bo'lsa, o'zbek oilalarida birdamlik va kattalarga hurmat birinchi o'rinda turadi. Bu farqlar Hofstedening madaniy o'lchovlar nazariyasi asosida tahlil qilindi, bunda Germaniya individualistik jamiyat, O'zbekiston esa kollektivistik jamiyat sifatida ko'rib chiqildi. [4;561]

Nemis adabiyotida shaxsiy fikrni to'g'ridan-to'g'ri ifodalashga urg'u beriladi, masalan:

„Auch wenn ich dir widerspreche, respektiere ich deine Gedanken.“ [5;193] (Men sening fikrlaringga qarshi bo'lsam ham, fikrlaringni hurmat qilaman.)

O'zbek oilalaridagi nutqiy etiketni tushunishda o'zbek adabiyoti alohida ahamiyat kasb etadi. S.Ahmadning „Ufq“ romanida oilaviy mas'uliyat, mehmondo'stlik va farzandlarning tarbiyadagi o'rni yoritilgan. Ushbu asarda ota-onaning farzandlar hayotidagi yetakchi roli va nutqiy etiket orqali ularga ta'sir o'tkazishi tasvirlanadi.

„Tentakkinamga tansiqroq bir nima pishirib beray desam o'tin qolmapti.“ [10;624] Bu ifoda orqali oilaviy mehr-oqibat va farzandlarning ta'minlanishiga bo'lgan e'tibor ifodalanadi. Shuningdek, bu ibora madaniy tasvirlar orqali o'zbek oilalaridagi samimiyatni yoritadi.

„Bolamni so'kmang. Bolaginamni g'adablamang!“ [10;902] Ushbu ibora o'zbek oilalarida onaning bolalarini himoya qilish va ularning ruhiyatiga hurmat bilan yondashishini aks ettiradi.

Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida nemis va o'zbek oilalarining lingvistik qadriyatlari va muloqot uslublari o'rtasidagi farqlar ochib berildi. Nemis oilalarida shaxsiy mustaqillik va rostgo'ylik ustuvor bo'lsa, o'zbek oilalarida birdamlik va kattalarga hurmat birinchi o'rinda turadi. Bu farqlar Hofstedening madaniy o'lchovlar nazariyasi asosida tahlil qilindi, bunda Germaniya individualistik jamiyat, O'zbekiston esa kollektivistik jamiyat sifatida ko'rib chiqildi. [4;561]

TILSHUNOSLIK

Adabiyotlar tahlili natijasida nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning lingvistik va madaniy o'ziga xosliklari chuqurroq o'rganildi. Ushbu tahlillar madaniyatlararo muloqotning nozik jihatlarini tushinishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning asosiy maqsadi nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilishdir. Shu maqsadda bir nechta sifatli tadqiqot usullari tanlandi va quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Etnolingvistik kuzatuv tadqiqotning asosiy usullaridan biri bo'lib, u orqali nemis va o'zbek oilalarida tabiiy muloqot jarayonlari kuzatildi. Kuzatuv jarayonida quyidagilar amalga oshirildi:

Nemis oilalarida oilaviy suhbatlar, qaror qabul qilish jarayonlari va kundalik muloqotdagi nutqiy iboralar yozib olindi. Bu jarayonda muloqotning to'g'ridan-to'g'ri va tanqidiy yondashuvga asoslanganligi qayd etildi.

O'zbek oilalaridagi muloqotda samimiyat, kattalarga hurmat va an'anaviy qadriyatlarga asoslangan nutqiy iboralar yig'ildi. Jumladan, oilaviy maslahatlar, mehmondo'stlik bilan bog'liq muloqotlar o'rganildi.

Nemis oilalari a'zolari bilan intervyular o'tkazildi. Ishtirokchilar oilaviy muloqotdagi qoidalarining mazmuni, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari haqida so'roq qilindi. Suhbatlarda quyidagilar tahlil qilindi:

Oilaviy qaror qabul qilishda muloqot uslublari.

Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nutqiy o'zaro munosabatlar.

Hurmat va samimiyatni ifodalovchi iboralar.

Nemis va o'zbek oilalaridagi muloqot uslublarini solishtirish orqali ularning lingvistik va madaniy farqlari aniqlandi. Misollar keltirildi:

„Das kann ich so nicht akzeptieren, Vater. Wir sollten darüber nochmal nachdenken.“ [3;151] (Men buni shunday qabul qila olmayman, otajon. Buni yana bir bor muhokama qilishimiz kerak.)

„Ukang bir emas, ikkita bolali bo'ldi, o'g'lim. Buni yana bir o'ylab ko'r.“ [9;624] Ushbu ibora o'zbek oilalarida maslahatning ahamiyatini aks ettiradi.

Oilalar o'rtasidagi muloqotlardan olingan iboralar lingvistik jihatdan tahlil qilindi. Har bir ibora madaniy kontekstda o'rganilib, quyidagi xususiyatlar o'rganildi:

Misollar semantik jihatdan tahlil qilinib, iboralarning ahamiyati va muloqotdagi vazifalari aniqlandi.

Muloqotda nutqiy etiketning qanday vaziyatlarda qo'llanilishi va qanday ma'nolarni ifodalashi tahlil qilindi.

Intervyu va kuzatuv natijalari asosida to'plangan ma'lumotlar mavzular bo'yicha tahlil qilindi. Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning asosiy xususiyatlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha umumlashtirildi:

Rostgo'ylik va tanqidiy yondashuv (nemis oilalari).

Hurmat va an'anaviy qadriyatlar (o'zbek oilalari).

Shaxsiylik va ijtimoiy mas'uliyatni aks ettiruvchi muloqot uslublari.

Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar turli avlod vakillarining fikrlari asosida umumlashtirilib, lingvistik va madaniy o'zgarishlar ham tahlil qilindi. Bu usullar nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketni kompleks yondashuv bilan o'rganishga imkon berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning quyidagi asosiy xususiyatlarini aniqlandi:

Nemis oilalarida ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqot uslubi ustuvor ahamiyatga ega. Farzandlar o'z fikrlarini ochiq aytadi va ota-onalar tomonidan bu hurmat bilan qabul qilinadi. Misol uchun:

„Das kann ich so nicht akzeptieren, Vater.“ [3;141] (Men buni shunday qabul qila olmayman, otajon.)

O'zbek oilalarida esa bunday ochiqlik kam uchraydi. Kattalarga qarshi fikr bildirish odob-axloq doirasiga to'g'ri kelmaydi deb hisoblanadi. O'zbek madaniyatida kattalarning so'zini qaytarmaslik hurmat belgisidir.

Nemis oilalarida har bir oila a'zosining shaxsiy maydoniga katta hurmat bilan qaraladi. Masalan, ota-onalar farzandlarni mustaqil qaror qabul qilishga undaydi:

„Du bist jetzt alt genug. Entscheide selbst.“ [7;726] (Endi sen yetarlicha ulg'aygansan. O'zing hal qil.)

O'zbek oilalarida esa ota-onalar farzandlar hayotiga faol aralasha oladi. Kattalarning qarorlari farzandlar hayotida muhim o'rin tutadi.

O'zbek oilalarida hurmat, mehr-oqibat va birdamlik asosiy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ota-onalar bolalar tarbiyasida muloyimlik va bag'rikenglikka e'tibor beradi.

Nemis oilalarida esa hurmat shaxsiylik va erkinlikni ta'minlash orqali namoyon bo'ladi.

Nemis oilalarida vaqtning qat'iy rejalashtirish muhim o'rin tutadi. Har bir faoliyat oldindan belgilangan jadval bo'yicha amalga oshiriladi:

„Sei bitte pünktlich.“ (Iltimos, o'z vaqtida bo'l.)

O'zbek oilalarida esa vaqtning boshqarish moslashuvchan bo'lib, insoniy munosabatlar vaqt jadvalidan ustun qo'yiladi.

Natijalar nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning madaniy va lingvistik jihatlari orasidagi farqlarni yaqqol namoyish etadi. Nemis oilalari muloqotda shaxsiy mustaqillik, rostgo'ylik va vaqtning qadrlashga e'tibor bersa, o'zbek oilalarida jamovaviylik, hurmat va ijtimoiy birdamlik ustunlik qiladi.

Bu farqlar ikki jamiyatning ijtimoiy tuzilishlariga bog'liq. Nemis jamiyati individualizmga asoslangan bo'lib, har bir shaxs o'z fikrini bildirishga haqli. O'zbek jamiyati esa jamoaviylikka tayanib, oilaviy birdamlikni ta'minlash uchun hurmat va an'anaviy qadriyatlarga asoslanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, madaniy kontekst muloqotning asosiy qoidalarini belgilaydi. Nutqiy etiketni o'rganish, madaniyatlararo muloqotni tushunish va samarali aloqalarni o'rnatishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiket jamiyatning madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nemis oilalari muloqotda ochiqlik, shaxsiy mustaqillik va vaqtning qadrlashga e'tibor beradi. Ular har bir oila a'zosi fikrini hurmat qiladi va tanqidiy yondashuvni rag'batlantiradi. O'zbek oilalarida esa hurmat, birdamlik va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan muloqot ustuvor ahamiyatga ega.

Madaniyatlar o'rtasidagi bu farqlar har bir jamiyatning tarixiy va ijtimoiy sharoitlariga asoslangan holda shakllangan. Nemis madaniyatidagi individualizm va o'zbek madaniyatidagi jamovaviylik muloqot uslublariga bevosita ta'sir qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari madaniyatlararo muloqotni chuqurroq tushunish va turli madaniyat vakillari bilan samarali aloqa o'rnatish uchun amaliy ahamiyatga ega. Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning tahlili madaniy xususiyatlarni chuqurroq anglash va ularni muloqotga tatbiq etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. E.Kästner. Das fliegende Klassenzimmer. – Dressler, 2002. – S. 176.
2. E.Kästner. Emil und die Detektive. – Dressler / Atrium, 1929. – S. 170.
3. F.Schiller. Kabale und Liebe. – Reclam, Philipp, jun. GmbH, Verlag, 1993. – S. 141.
4. G.Hofstede, G.J.Hofstede, M.Minkov. Cultures and Organizations: Software of the Mind: Intercultural Cooperation and Its Importance for Survival. – New York: Mc Graw Hill, 2010. – P. 561.
5. H.Hesse. Demian. – Frankfurt am Main: Suhrkamp Verlag, 1996. – S. 193.
6. J.W.Goethe. Die Leiden des jungen Werther. – Anaconda Verlag, 2005. – S. 112.
7. J.W.Goethe. Wilhelm Meisters Lehrjahre. – Deutscher Taschenbuch, 2004. – S. 726.
8. Mo'minov S. Muloqot mezoni. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 96 b.
9. O'tkir Hoshimov - Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2012. – 624 b.
10. S.Ahmad. Ufq. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 912 b.
11. T.Mann. Buddenbrooks. – Fischer Taschenbuch, 1989. – S. 768.
12. Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 162 б.